

**Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasida 2024-yil 7 oyi
bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilinishi haqida
UMUMIY HISOBOT**

I. Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasi (keyingi o'rinlarda - Inspeksiya)ning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to'g'risida umumiy axborot.

Transport nazorati inspeksiyasi faoliyati samaradorligini oshirish korrupsiyaga qarshi kurashishni tashkil etish bo'yicha 2024-yil uchun "Yo'l haritasi" tasdiqlangan.

Shuningdek, korrupsiyaviy xavf-xatarlar Xaritasi hamda inspeksiyasi markaziy apparati va hududiy filiallarining korrupsiyaga qarshi kurashish DASTURI tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarning faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6247-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash borasida ochiq ma'lumotlar portali va inspeksiyaning rasmiy veb-sayti sahifasiga ma'lumotlar joylashtirib borilmoqda.

Inspeksiyaning markaziy apparati hamda hududiy bo'limlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tizimli ravishda tadbirlarning amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, 2024-yil 7 oyi davomida markaziy apparatda 8 marotaba seminar treyning va yig'ilishlar o'tkazilgan bo'lsa, hududiy bo'limlar tomonidan 19 marotaba seminarlar o'tkazilgan hamda veb sayt va boshqa elektron axborot vositalarida targ'ibot ishlari amalga oshirilgan.

Hisobot davrda inspeksiyada korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik hujjatlarining buzilishiga yo'l qo'yilmadi.

II. Siyosat va tartib-taomillar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash hamda inspeksiya tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini joriy etishning ustuvor vazifalarini o'z vaqtida, to'liq va sifatli amalga oshirish maqsadida Agentlik tomonidan ishlab chiqilib tavsiya etilgan, BMT TDning "O'zbekistonda samarali, hisob beruvchi va shaffof boshqaruv institutlari orqali korrupsiyaga qarshi kurashish" loyihasi bilan birgalikda ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi standartlardan kelib chiqib, inspeksiyada korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini joriy etuvchi ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqilib qabul qilingan.

Jumladan, inspeksiyaning 2024-yil 26-apreldagi 230-sonli buyrug'i bilan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom, aloqa kanallari orqali

korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti, xodimlarning etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma, kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma, ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma 7-ilovaga, Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti, korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom, xodimlarning korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha Reglamenti tasdiqlangan.

Buyruq bilan barcha xodimlar tanishtirilgan va tasdiqlangan ichki idoraviy hujjatlar talablari egallab turgan lavozimi va bajarayotgan funksiyasidan qat'iy nazar inspeksiyaning barcha xodimlari uchun birdek amal qilishi belgilab qo'yilgan. Ushbu buyruq inspeksiya markaziy apparati barcha bo'limlari xodimlariga yetkazilgan.

Shuningdek, inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limiga inspeksiya ishga kirayotgan har qanday shaxs mazkur ichki idoraviy hujjatlar bilan imzo chekkan holda tanishishini, ularning qonun-qoidalariga rioya qilishlarini ta'minlash yuklatilgan.

Transport nazorati inspeksiya faoliyati samaradorligini oshirish korrupsiyaga qarshi kurashishni tashkil etish bo'yicha 2024-yil uchun "Yo'l haritasi" tasdiqlangan. Shuningdek, korrupsiyaviy xavf-xatarlar Xaritasi hamda inspeksiya markaziy apparati va hududiy filiallarining korrupsiyaga qarshi kurashish DASTURI tasdiqlangan.

III. Xavf-xatarlarni baholash¹

Inspeksiya tomonidan xavf-xatarlarni baholash amalga oshirilganligi bo'lib, inspeksiyaning 2024-yil 25-aprelda Korrupsiyaviy xavf-xatarlar Xaritasi hamda inspeksiya markaziy apparati va hududiy filiallarining korrupsiyaga qarshi kurashish DASTURI tasdiqlangan. Bunda barcha funktsiya va vazifalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash bo'yicha baholash o'tkazilib, aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha Dastur ishlab chiqilgan va korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati shakllantirilgan.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar Xaritasiga muvofiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarning toifalar markaziy apparat va hududiy bo'linmalar bo'yicha jami 59 ta bo'lib, shundan, 21 tasi o'rta va 38 tasi past deb baholangan.

Inspeksiya uchun o'rta bo'lgan qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar, shuningdek, ko'rsatilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish tegishli tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish

¹ Bo'lim faqat har yillik hisobot davrida to'ldiriladi. Mazkur bo'limda Tashkilot tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarni baholashni o'tkazish uslubiyotiga muvofiq amalga oshirilgan xavf-xatarlarni baholash natijalari bo'yicha tahliliy axborot aks ettiriladi.

2024-yil 1-choragida inspeksiyadagi mavjud shtat birliklarida faoliyat yuritayotgan barcha boshqaruv xodimlari har yillik manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiyalash tartib-taomilidan o'tgan. Jumladan, markaziy apparat 50 nafar va hududiy bo'limlarda 298 nafarni tashkil etadi. Shuningdek, 2024 yil 1-choragida lavozimga qabul qilingan 18 nafar, 2024-yil 2-choragida 9 nafar xodim ishga qabul qilish jarayonida deklaratsiya to'ldirilgan. Har yili manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyasini amalga oshirishi shart bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiyalash tartib-taomillaridan o'tgan xodimlarning Inspeksiyadagi umumiy xodimlar soniga nisbati 100 foizni tashkil etadi. Hisobot davrida inspeksiya tizimida manfaatlar to'qnashuvi aniqlanmagan.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Tashkilot sharnomalariga kiritish

Korrupsiyaga qarshi qoidalari Inspeksiyaning mehnat shartnomalariga hamda xo'jalik shartnomalariga kiritilgan, shu jumladan hisobot davrida 42 ta shartnomalar e-harid platformasi orqali hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3953-son qarori asosida amalga oshirilgan.

Kontragentlarni tekshirish

Hisobot davrida kontragentlar bo'yicha o'tkazilgan tekshiruvlar o'tkazilmagan. Hisobot davrida inspeksiyaning kontragentlar bilan huquqiy munosabatga kirishishga ehtiyoj bo'lmagan. Tekshiruv o'tkazilmagan. Inspeksiyaning 2024-yil 01-avgust holatiga tuzilgan shartnomalar soni 42 tani tashkil etadi va xarid.uzex.uz elektron do'kon orqali xarid qilingan. Tegishli ishlar belgilangan tartibda amalga oshirilgan.

Ishga nomzodlarni tekshirish

Inspeksiya tizimiga ishga kirish uchun nomzodlar ustidan tanlov komissiyasi tomonidan 2024-yil 1-choragida 18 marotaba, 2024-yil 2-choragida 9 marotaba tekshiruvlar o'tkazilgan. Hisobot davrida inspeksiyaga 9 nafar boshqaruv xodimi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi hamkorligida e'lon qilingan mustaqil, ochiq tanlov asosida ishga qabul qilindi. Nomzodlarning muqaddam ishlagan joylaridan tavsifnomalar olindi. Shuningdek, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali inspeksiyaning shaxsiy kabinetida nomzodlarning ruhiy kasalliklar bo'yicha dispanser hisobida turishi yoki turmasligi, narkologiya bo'yicha dispanser hisobida turishi yoki turmasligi, sudlanmaganlik haqida ma'lumotlari tekshirilgan.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

Transport nazorati inspeksiyasi faoliyati samaradorligini oshirish korrupsiyaga qarshi kurashishni tashkil etish bo'yicha 2024-yil uchun "Yo'l haritasi" tasdiqlangan.

Mazkur ish rejasi muvofiq xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy bilimlari darajasini oshirish, korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan tashkil etilgan 12 soatlik "Korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf qilish masalalari" onlayn o'quv kursida 2024-yil 20-30 may kunlari 128 nafar, 10-20-iyun kunlari 20 nafar boshqaruv xodimini malakasi oshirildi. Malaka oshirgan xodimlarga elektron sertifikatlar taqdim etildi. Yil davomida 348 nafardan iborat barcha xodimlarni mazkur kurslarda malaka oshirishi nazarda tutilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha suhbat-treningdan (umumiy, tanishuv) o'tgan yangi xodimlarni umumiy yangi xodimlar soniga nisbati sakkiz foizni tashkil etadi.

Inspeksiyaning xodimlar xonalariga korrupsiyaga qarshi axborot plakatlar yopishtirildi. korrupsiyaga qarshi kurashish skrinshotlar tayyorlanib ishchi kompyuterlar ekraniga qo'yildi. Inspeksiyada oyda ikki marotaba o'tkazib kelinayotgan siyosiy-ma'rifat soatlarida korrupsiyaga qarshi ko'rashish bo'yicha axborotlar berib borilgan. (Hisobot davrida 8 ta)

2024-yil 29-aprel kuni Jamoatchilik kengashining yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda fuqarolik jamiyati vakillari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 6247-son Farmoni yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida axborot berildi. (Hisobot davrida 1 ta)

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'risidagi xabarlar

Inspeksiyada korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida tezkor xabar berish imkoni beruvchi aloqa kanallari, maxsus axborot portallari, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalar, ishonch telefoni (71) 202-05-01 (452) faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Jumladan, Inspeksiyaning rasmiy sayti (<https://uztn.uz/>), telegram kanali (<https://t.me/Uztransnazorat>), ijtimoiy tarmoqlarda (<https://www.facebook.com/uztnuz/>), (https://www.instagram.com/transport_nazorat_inspeksiyasi?igsh=YzljYTk1ODg3Zg==) o'z sahifalarini yo'lga qo'ygan.

Korrupsion holatlar haqida xabar berish uchun elektron pochta manzili: (antikorrupsiya@uztn.uz) hamda qayta aloqa boti ([@anticorruption_uztn_bot](https://t.me/anticorruption_uztn_bot)) tashkil qilingan.

Hisobot davrida inspeksiya xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog'liq masalalar to'g'risidagi aloqa kanallari orqali murojaat yoki xabarlar kelib tushmagan. Korrupsiyaga qarshi qonunchilik buzilganligi aniqlanmagan. Xizmat tekshiruvi o'tkazilmagan.

VII. Monitoring va nazorat

Markaziy apparat bo'limlari va hududiy bo'limlarda mavjud korrupsiyaga qarshi talablar, nazorat tadbirlari o'tkazish avgust-sentabr oylariga rejalashtirigan.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

Inspeksiyada korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi talablarning buzilganligi holatlari aniqlanmagan.


IX. Xulosalar

Inspeksiyada korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi, uning siyosati xodimlarga yetkazilgan, mazkur yo'nalishda xodimlar malakasini oshirish tizimi samarali tashkil etilgan. Inspeksiya tizimida markaziy apparat va hududiy bo'linmalarda korrupsiyaga qarshi kurash choralarni kuchaytirish, shu yo'nalishda video roliklar, plakatlar, tarqatma materiallar, xodimlar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi

Keyingi hisobot davrida inspeksiya tizimida markaziy apparat va hududiy bo'linmalarda korrupsiyaga qarshi kurash choralarni kuchaytirish, noan'anaviy tadbirlarni amalga oshirish, shu yo'nalishda video roliklar, plakatlar, tarqatma materiallar, so'rovnomalar o'tkazib borish talab etiladi.

**Mehnat muhofazasi va texnika
xavfsizligi bo'yicha bosh mutaxassis**



O'.Ochilov